
Respublika ishchi guruhi ko'magi bilan "Minor" MFY hududida oqava suv tarmog'ida yuzaga kelgan nosozliklar bartaraf etilmoqda

Respublika ishchi guruhi a'zolari tomonidan mahallalardagi muammolar aniqlanib, ularni ijobiy hal qilish imkoniyatlari va chora-tadbirlari jadal amalga oshirilmoqda.

Xususan, ishchi guruhi ko'magi bilan yana bitta muammo o'z yechimini topdi. Minor MFY hududidagi axoli xonadonlaridan o'tuvchi konalizatsiya quvurida yuzaga kelayotgan nosozliklar bir necha yillirdan buyon fuqarolarni qiynab kelayotgan edi.

Bunga sabab Minor MFY Navo ko'chasida fuqaroning yashab kelayotgan uyining ostidan o'tuvchi quvuri yillar mobaynida eskirib quvurda tikilish xolatlari vujudga kelayotgan edi.

Bugun 06.05.2024 yil kuni "Farg'ona suv ta'minoti" AJ Rishton tuman bo'limi xodimlari tomonidan Minor MFY Navo ko'chasida fuqaroning Abdusalimov Zokirjoning xonadonida joylashgan eski oqava suvi kalodesi yangi kalodesga almashtirilib, Minor MFY 42 ta fuqarolarni konalizatsiya tizimidagi muammolari bartaraf etildi.

2024-05-07 20:02:53